

INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MADANIYATLARARO MULOQOTGA O'RGATISH USULLARI

Qodirov Adhamjon Sharifjon o'g'li
Namangan davlat Universiteti magistranti

Annoatatsiya: *Mazkur maqolada ingliz tili darslarida o'quvchilarni madaniyatlararo muloqotga o'rgatish usullari, O'quv jarayonining eng muhim vazifasi, o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish, o'quvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirish haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Dizayn, aloqa, xorijiy, kompetensiya, axborot, interfaol.*

Til asosiy aloqa vositasidir, usiz inson jamiyatining borligi va rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda bizning dunyomizda ijtimoiy munosabatlarda katta o'zgarishlar bo'layotgan bir pallada aloqa axborot vositalari (axborot texnologiyalari) o'quvchilarning kommunikativ malakasini oshirishni talab qiladi, ular muloqotning boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro muloqot qilish jarayonida turli vaziyatlarda fikrlarni almashishi, til va so'zlashuv normalarini to'g'ri ishlatishi taqazo etadi.

Bunday sharoitda, xorijiy tilning asosiy maqsadi madaniyatlararo kommunikativ qobiliyatni shakllantirishdir, ya'nii chet tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishni talab etiladi.

Maktab ta'limining ushbu bosqichida pedagogik jarayonning deyarli barcha qirralarini qamrab oladigan muhim o'zgarishlar mayjud. Ular ta'lim jarayoniga muayyan maqsadlar va vazifalarni qo'ydi.

Asosiy vazifalaridan biri, bu zamonaviy o'qitish va ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish orqali o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishdirva shu bilan birga, o'quvchini madaniyatlararo muloqotga o'rgatishdir. Har qanday yangi texnologiyalarni qo'llash bilan o'qituvchining yangi pedagogik g'oyalari boshlanadi: tizimli, metodologik tilning ravshanligi, o'quv uslubiyatida aniq taktika paydo bo'lishi.

O'quv jarayonining eng muhim vazifasi – o'quvchining shaxsiy qiziqishi. Rejalashtirilgan natijalarni olish uchun ta'lim jarayonida qaysi texnologiyalardan foydalanishi kerakligini bilish kerak. Ko'rinish turibdiki, har qanday aniq ta'lim texnologiyasidan foydalanish qanchalik mukammal bo'lmasin, o'quvchilarning malakalarini aniqlash va rivojlantirish uchun eng samarali shart-sharoitlarni yaratmaydi.

Pedagogik (ta'lim) texnologiyasi – o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va o'tkazish uchun o'quvchilar va o'qituvchilar uchun qulay muhit bilan birlgilikda o'quv-pedagogik faoliyatning yaxshi o'ylangan modeliga aytildi. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonining to'liq nazorat qilinadigan g'oyasini amalga oshirishni o'z ichiga oladi

Dizayn va interfaol o'qitish usullari haqida aloxida to'xtalganda, ularning madaniyatlararo muloqotga o'rgatishda kombinatsiyasi va integratsiyalashuvi ingliz tilini o'qitish jarayonida eng samarali va unumli vositalardan biri deb hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuvning til ta'limidagi umumiyl maqsadi o'quvchilarni chet tili vositalari orqali ko'p madaniyatli dunyoda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini

rivojlantirish orqali faol hamkorlikka tayyorlashdir. Til muayyan ijtimoiy-madaniy voqelikni aks ettiruvchi vosita bo'lib, uni egallash orqali biz madaniyatga tegishli olam manzarasini ham egallaymiz. Til bilishning o'zi aslida madaniyat belgisining bir ko'rinishidir. Barchamizga ma'lumki bizning buyuk bobokolonlarimiz ham qadimdan ikki, uch tilni bilganlar. Bu esa ularga boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilish va hamnafas yashash imkonini bergen. Shuning uchun ham, chet tilini o'qitishda o'quvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirib borish nihoyatda muhim bo'lib, bu nafaqat chet tilini kerakli darajada chuqur o'zlashtirishga, balki turli mamlakatlar xalqlari o'rtasida keng miqyosli ijtimoiy-madaniy munosabatlarni o'rnatishga ham samarali ta'sir ko'rsatuvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi davrda chet tillarni o'qitishning asosiy maqsadi faqat lisoniy bilimlar, ko'nikma va malakalarni yetkazish va hatto mamlakatshunoslikka oid ma'lumotlarni risoladagidek o'rganishdangina iborat bo'lib qolmasligi lozim. Bu haqda Ter-Minasova fikri quyidagicha: "...pedagogik jarayonda madaniyatlararo muloqotda ishtirot eta olish qobiliyati asosiy o'rinni egallashi kerak. Bu ayniqsa hozir juda ham muhim, «xalqlar, tillar, madaniyatlarning bir-biriga aralashuvi mislsiz keng quloch yoyganida – o'zga madaniyatlarga bag'rikenglikni tarbiyalash, ularga nisbatan qiziqish va hurmat uyg'otish hamda o'zida o'zga madaniyatlardagi ortiqchalik, yetishmaslik yoki o'xshamasligidan g'ashlanish hissini yengish kabi muammolar ko'ndalang turadi. Aynan shu munosabat bilan madaniyatlararo kommunikatsiya masalalariga nisbatan har tomonlama qiziqish uyg'ongan».

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyani quyidagicha ta'rifladik: madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi – chet tilida muloqot olib boruvchi shaxsning til sohiblarining ijtimoiy va nutqiy xulq-atvorining milliy-madaniy xususiyatlari, ularning urf-odatlari, muomala qoidalari, tarixi va madaniyatidan xabardor bo'lishi hamda muloqot jarayonida ana shu bilimlardan foydalangan holda o'zga madaniyatlar vakillari bilan muvaffaqiyatli ravishda muloqotlashish qobiliyatini namoyon qila olish layoqatidir.

Madaniyatlararo muloqotga xos bo'lgan umumiy muammolar talim, turizm, biznes va diplomatiya kabi ko'plab insoniy faoliyatlarda mavjud. Madaniyatlararo muloqot muammolarini hal qilish fanlararo xarakterga ega va ular ishtirot etadigan madaniy omillarni yahshi tushunishni talab qiladi.

Madaniyatlararo muloqot qobiliyatini o'quvchining turli madaniyatlarni idrok etish, tahlil qilish va ularni o'z ona tili va millatiga bog'lash qobiliyati deb ta'riflash mumkin. Zamonaviy odam qanchalik globallashgan dunyoda yashashidan qatiy nazar baribir, hozir odamlar birinchi navbatda o'z oilasini, mintaqasini, millatini, mamlakatini, yoki madaniyatga aloqadorlik axborot xabarlarini bilishi darkor deb hisoblayman. O'zining madaniy ildizlari to'g'risida doimiy xabardor bo'lmasdan, odam boshqa millatning madaniyatini tushuna olmaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Xorijiy tillarni o'rgatishda rol o'ynash o'yinlari // INR № 4, 1989
2. Ingliz tilini o'qitish bo'yicha loyiha ustida ishlash // INR Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi usuli // INR № 2, 3, 2000

3. International Encyclopedia of Linguistics. — N.Y.: Oxford University Press, 1992.
4. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры.
5. Сепир Э. Избранные труды по языкоznанию и культурологии.
6. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию.
7. Воробьев В. В. Лингвокультурология (теория и методы).